BIR “SINONIMIK UYA” DOIRASIDAGI SO‘ZLARNING MA’NO OTTENKALARI

Sodikova Nazokat Gaforovna,
SamDCHTI dotsenti v.b, f.f.f.d (PhD)
Akmatalieva Chinara Tulenovna
Qirg‘iz-Qozoq Universiteti, Bishkek
chinara.tulen@yandex.com

“Sinonim” atamasi dastlab leksikaga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, bu yerda ma’nolari bir xil, shakli va ma’no ottenkalari turli xil bo‘lgan so‘zlar yoki so‘z formalari tushuniladi. Sinonimlarning har xil aytilishi va turli xil yozilishi borasida tilshunoslar hamjihat bo‘lsada, ular sinonimlar anglatgan ma’nosiga kelib har xil fikrlarni bayon etishadi. Natijada tilshunoslikda sinonimlar haqida har xil ta’riflar paydo bo‘lgan.[1]

Tilning so‘z boyligi ortishi, rivojlanishi bilan sinonimlar doirasi kengaya boradi. Sinonimlarning taraqqiyoti, tilda yangidan-yangi sinonimlarning paydo bo‘lishi so‘z boyligining rivojiga bog‘liq. Sinonimlar umumiy ma’nolari asosida o‘zaro birlashib, bitta “sinonimik uyani” hosil qiladi. Aynan mana shu sinonimik uyaga kirgan har bir so‘zning ma’no ottenkasini belgilash va qay holatda ularning biri o‘rniga ikkinchisini ishlatish mumkinligini ko‘rsatish har bir tadqiqot oldida turgan muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Biz mazkur maqolamizda nemis tilidagi bir sinonimik gruppaga kiruvchi so‘zlarni ma’no ottenkalari, emosional, ekspressiv va stilistik hamda boshqa xususiyatlarni faktik materiallar[2] analizi asosida ko‘rsatishga harakat qilamiz.

1. Angst (f), Furcht (f), Schreck (en) – qo‘rqinch, qo‘rquv, qo‘rqish.

Ushbu uchala so‘z ham biron narsadan qo‘rqish ma’nosini anglatadi. Bular ichida Angst umumiy ma’noga ega. Furcht va Schreck (en) esa ushbu hissiyotning yuqoriroq darajasini anglatadi. Schreck (en) so‘zi Angst va Furcht otlariga nisbatan uzoq davom etmaydigan bir lahzalik qo‘rquvni anglatadi. Misollar:

1. In Hof herrschte die Stille der namenlosen **Angst**. (L.Frank).
2. Das Gefühl **der Furcht** sonderte sich von Nebengefühlen. (A.Seghers).
3. Sein Schreck war so gewaltig, daß er nicht länger als eine Sekunde dauern konnte. (L.Frank).

2. Ding (n), Sache (f), Gegenstand (m) – narsa

Uchala ot ham bir xil narsani, ya’ni predmet, narsa ma’nosini anglatadi. Biroq Ding va Sache so‘zlari ko‘proq jonli tilga xos bo‘lsa, Gegenstand so‘zi odatda yozma nutqda ishlatiladi. Misollar:

1. Dann kramte er aus dem Rucksack verschiedene **Dinge** heraus. (A.Seghers).
2. … wenn sie … dumme kleine **Sachen** kauften, nur um zusammen etwas zu kaufen … (L.Frank).
3. Für den Metaphysiker sind die **Dinge** … ein für allemal gegebene Gegenstände der Untersuchung. (F.Engels).

3. Ende (n), Schluß (m) – tamom.

Har ikkala ot ham biron narsaning tugallanganligini anglatadi. Biroq Ende vaqt ma’nosiga ega bo‘lgan tushunchalarning nihoyasini anglatsa, Schluß so‘zi biron-bir voqea-hodisaning tamom bo‘lganligini bildiradi. Qiyoslang:

1. Jetzt zwar, Ende Juli, verhalten sie sich still. (A.Seghers).

2. Erst seit dem **Ende** des 16. Jahrhunderts kennt die deutsche Sprache das Dehnungs - h als Längezeichen.

3. Am Ende des Briefes hieß es … (A.Wedding).

4. greifen, fassen, packen, ergreifen – ushlamoq.

Bu to‘rtala fe’l ham “biron narsani ushlamoq” degan ma’noni anglatadi. Packen fe’li kuchaytiruvchi ma’noga ega. Bularning barchasi Akkusativobjekt bilan qo‘llanadi. Biroq ularning har biri turli xil predloglar bilan ishlatiladi: greifen an + Akkusativ; fassen, packen an + Dativ; fassen, packen, ergreifen bei + Dativ; greifen und fassen nach + Dativ. Misollar:

1. Er **griff** sich an den Hals. (A.Seghers).

2. Dabei **fasste** sie Helene am Arm und zog sie mit fort. (W.Bredel).

3. Dann **ergriff** der Student das Glas und schüttete den Wein Herrn Hut ins Gesicht. (L.Frank).

4. Die Begeisterung der Gesetzgeber **packte** das ganze Volk. (L.Feuchtwanger).

5. Junge (m), Knabe (m), Bube (m) – o‘g‘il bola.

Bu otlar bir xil ma’noga ega bo‘lib, ular ishlatish jihatdan bir-biridan farq qiladi. Knabe so‘zi avvalambor yozma nutqqa tegishli bo‘lib, poeziyada ko‘plab ishlatiladi. Junge va Bube so‘zlari esa jonli tilga xos bo‘lib, Junge so‘zi Germaniyaning shimolida, Bube so‘zi esa janubda, shuningdek Avstriyada ko‘proq ishlatiladi. Qiyoslang:

1. Siebzehn **Knaben** standen vor dem Richtertisch. (L.Frank).

2. „Würde auch dir nichts schaden, mein Junge, meint der Onkel“. (F.Wolf).

3. Ich hoffe, du wirst solche Kindereien nicht mehr tun; du bist ja wirklich kein **Bub** mehr. (St.Zweig).

6. lernen, studieren – o‘qimoq.

Har ikkala fe’l ham biron joyda yoki biron narsani o‘qimoq ma’nosini anglatadi. Lernen fe’li birinchi navbatda maktabda o‘qimoq ma’nosini anglatsa, studieren fe’li esa oliy o‘quv yurtida tahsil olmoq ma’nosida ishlatiladi. Shuningdek u biron bir fanni (medisina, matematika, biologiya) o‘rganish ma’nosida ham ishlatiladi. Har ikkala fe’l ham to‘ldiruvchisiz yoki turli xil predloglar bilan ham ishlatiladi: Lernen in, an + Dativ, studieren an, auf, selten in + Dativ. Misollar:

1. Er beschrieb auch die Schule, in der er einen Monat **gelernt** und gelebt hatte. (A.Seghers).

2. Der Maestro, das ist etwas anders. Er hat auf dem Konservatorium **studiert**. (H.Mann).

3. „Was studieren Sie denn, junger Mann?“ fragte sie. „Chemie“. (H.Mann).

7. Lohn (m), Gehalt (f), Gage (f) – ish haqi, oylik.

Bu so‘zlar biron kishining mehnati uchun beriladigan oylik, haftalik yoki kunlik ish haqini anglatadi. Biroq ular o‘rtasida tafovut mavjud. Lohn - bu avvalam bor ishchining ish haqiga nisbatan ishlatiladi. Gehalt so‘zi xizmatchining ish haqini anglatsa, Gage – bu san’atkorning mehnati uchun beriladigan summaga nisbatan qo‘llanadi. Misollar:

1. Sollte sie immer das letzte Wort haben bei ihrem geringen **Lohn** als Straßenbahnschaftnerin? (E.Strittmatter).

2. So ein Flesch klaute bestimmt an einem Tage mehr, als ein Zollinspektor bei treuer Pflichterfüllung im Monat an **Gehalt** verdiente … (W. Bredel).

3. Sie erhielt am Theater in Wien eine **Gage**, von dreihundert Kronen. (B.Kellermann).

Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, har bir “sinonimik uya” ni tashkil etuvchi so‘zlar umumiy ma’nolari asosida o‘zaro bog‘langanlar. Ammo ular ma’no ottenkalari va ishlatish

doirasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Sinonimlarning o‘zlariga xos shu xil ma’no tafovutlari ayrim hollarda birining o‘rniga ikkinchisi ishlatishga imkon bermaydi (Masalan: Lohn,Gehalt, Gage so‘zlari).

Demak, sinonim so‘zlarining ma’no ottenkalari va qo‘llanish doirasi bir xil emas. Bir “sinonimik uya” ga kiruvchi so‘zlarning muhim belgisi ularning ma’no tomondan bir-biriga yaqinligidir. Shuning uchun ham ular umumiy bir ma’no tevaragida uyusha oladi va bir sinonimik gruppani tashkil qiladi.

Adabiyotlar

1. Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. Л., 1971, 365 с.
2. Колосова Е.И. О грамматической синонимии у глаголов книжного характера. Казань, 2007.
3. Ахманова Л. Соварь лингвистических терминов. М., 1966, стр. 407.
4. Скрепина Л.М. Грамматическая синонимия. Л., 1987, стр. 4.
5. Arsenyeva M.G., Xazanovich A.P., Zamchuk D.B. Deutsche Synonyme. L., 1963.
6. Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. Leipzig, 1966.
7. Kern F. Die deutsche Satzlehre. Berlin, 1988.